

## “ISKANDAR PODSHO” QISSASI — ISKANDAR HAQIDAGI XALQONA ASAR

Shahnoza Ergashboevna XUDAYBERDIEVA

Magistrant

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti  
Toshkent, O‘zbekiston

## «ИСКАНДАР ПОДШО» — НАРОДНОЕ СКАЗАНИЕ ОБ АЛЕКСАНДРЕ

Шахноза Эргашбоевна ХУДАЙБЕРДИЕВА

Магистрант

Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы  
имени Алишера Навои  
Ташкент, Узбекистан

## THE STORY “ALEXANDER THE KING” — A FOLK LEGEND ABOUT ALEXANDER

Shakhnoza Ergashboevna KHUDAIBERDIEVA

Master's student

Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi  
Tashkent, Uzbekistan [xudayberdiyevashaxnoza5@gmail.com](mailto:xudayberdiyevashaxnoza5@gmail.com)

UDC (UO'K, УДК): 398.5

### For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Xudayberdieva Sh. E. “Iskandar podsho” qissasi — Iskandar haqidagi xalqona asar// O‘zbekistonda xorijiy tillar. — 2023. — № 1 (48). — B. 142-150.

<https://doi.org/10.36078/1679985383>

Received: january 2, 2023

Accepted: February 17, 2023

Published: February 20, 2023

Copyright © 2023 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



**Annotsiya.** Maqola shu kungacha maxsus o‘rganilmagan “Iskandar podsho” qissasi tadqiqiga bag‘ishlangan. An’anaviy muqaddimadan keyin kelgan “Dorob haqida”gi bir hikoya bilan boshlangan ushbu asardagi barcha hikoyalarning voqealari mavzulashtirilgan, ya’ni Iskandar sarguzashtiga oid masalani yoritishga bag‘ishlangan. Har bir turkum hikoya doston deb nomlangan. Asarda bitta nomlanmagan hikoyadan (dostondan) tashqari, to‘qson yettita doston keltirilgan. Mumtoz adabiyotida Iskandar nomi bilan bog‘liq ko‘plab asarlar mayjud va ularda Iskandarning olamshumul jasorati, oqil-u donoligi madh etilgan. Ushbu asar ham Iskandarning fazilatlarini madh etuvchi asarlardan biridir. Muallif maqolada ushbu “Iskandar podsho” deb nomlangan qissasning syujet yo‘nalishi, obrazlari va ifoda usuli haqida ma’lumotlarni taqdim etadi, zarur o‘rinnlada ularni umumiylambda talqin va tahlil qiladi.

**Kalit so‘zlar:** doston; qissa; syujet; obraz; roviy; bayon; Iskandar.

**Аннотация.** Статья посвящена исследованию сказания «Искандар подшо» («Король Александр»), которое до настоящего времени не изучено. Начиная с рассказа «О Доробе», следующего за традиционным прологом, события всех рассказов в этом произведении носят тематический характер, то есть посвящены одному вопросу, связанному с приключениями Искандера. Каждая серия рассказов называется дастаном. Кроме одного безымянного дастана, в произведении представлено девяносто семь дастанов с названиями. В восточной классической литературе написано немало произведений, связанных с именем Искандера, и в них воспевается его мужество, ум и мудрость. Данное произведение также является одним из произведений, восхваляющих достоинства Искандера. В статье автор дает информацию о сюжетной направленности, образах и поэтике «Искандар подшо» («Король Александр»),

анализирует и интерпретирует их в общем плане там, где это необходимо.

**Ключевые слова:** эпос; сюжет; образ; сказитель; повествование; Искандер.

**Abstract.** The article is devoted to the study of the story of “Iskandar Podsho” (“King Alexander”). Starting with the story “About Dorob”, following the traditional prologue, the events of the stories which are devoted to the adventure of Iskander in this work are thematic in nature. Each series of stories is called a dastan. In addition to one unnamed story (dastan), ninety-seven dastans are presented in the work. In the Eastern classical literature, a lot of works are connected with the name of Iskander, which glorify his courage, intelligence and wisdom. The following study informs on the plot, images and the way of expressing the story “Iskandar podsho” (“King Alexander”).

**Keywords:** epic; short story; plot; image; storyteller; narration; Iskander.

**Kirish.** Sharq mumtoz adabiyotida buyuk shaxslar, ularning faoliyatini yorituvchi, ularni madh etuvchi asarlar ko‘p. Adabiy merosimizning muayyan qismi ana shunday ulug‘ zotlar nomi bilan bog‘liqligi sir emas. Ayni paytda, Sharqda tarixiy shaxslar nomlari ostida asarlar yozish an’anasi ham shakllangan edi. Ana shunday shaxslardan biri, shubhasiz, Iskandardir. Bu haqda so‘z ketganda, tasavvurimizga “Xamsa” dostonlari tarkibidagi, xususan, Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostoni ham keladi. Ushbu obraz deyarli barcha xamsanavislar asarlarida mualliflar idealidagi adolatpesha, xalqparvar, dono shoh timsoli sifatida talqin etilgan. Ma’lumki, dunyoda ikki Iskandar o‘tgan va ularning biri — Qur’oni karimda keltirilgan Zulqarnayn bo‘lsa, ikkinchisi — yunon sarkarsi, makedoniyalik Iskandar (Aleksandr)dir. Adiblar o‘z asarlarida keltirgan iskandarlarning ulardan qay biri ekanligi to‘g‘risida ham bahs-munozaralar ko‘p davom etadi. Bizning mulohazamiz esa bu haqda emas, balki ushbu nom ostida bitilgan yana bir asar xususidadir.

**Asosiy qism.** “Iskandar podsho qissasi” O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining Asosiy fondida saqlanadi. Qissa 1913-yili Mulla Azim Toshkandiy tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan. Nasta’liq xatida ko‘chirilgan ushbu asarning fondda beshta nusxasi mavjud.

Asar 516 sahifadan tashkil topgan. U an’anaviy kirish qismidan so‘ng “Dorob” haqidagi hikoya bilan boshlanadi. Asarda keltirilgan barcha hikoyalari ularga asos bo‘lgan voqealarga bog‘liq ravishda mavzulashtirilgan va har bir hikoya tartib bilan *doston* nomi ostida berilgan. Har bir doston avvalida, *roviyalar* debdurlarkim jumlasining kelishi asarni xalq og‘zaki ijodiga juda yaqin ekanligini ko‘rsatadi.

Mazkur asar nomlanmagan bir hikoyadan tashqari, to‘qson yettita dostondan iborat. Ularning deyarli barchasini nomlashda muallif Iskandar olib borgan janglar, ushbu janglarga tayyorgarlik, jangdan keyingi holatlar va jangning natijalariga e’tibor qaratgan va ularni sarlavhalarda umumlashtirib berolgan.

Asarda keltirilgan voqealarning har bir epizodi qiziqarli bayon qilingan. Tasvirlarda, uchayotgan devlar, o‘z qiyofasini o‘zgartiruvchi afsungarlar, duo o‘qib nimani istasa, shuni amalga oshiradigan boshqa qahramonlar yoki raqibini bir zarbada ikki palla qiladigan bahodirlar talaygina. Sanab o‘tganlarimiz, albatta, hayotda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lmagan, biroq xalqning orzu-umidlarini o‘zida mujassamlashtirgan, qahramonliklarga to‘la dostonlariga o‘xshaydi.

“Doston — xalq og‘zaki ijodining eng yirik janri bo‘lib, u qahramonlik, ishqiy-sarguzasht, fantastik mazmunga ega bo‘lgan voqealarni bayon qiluvchi asar. Doston, poema — liro-epik janr. Bu janr barcha xalqlar adabiyotida keng tarqalgan. dostonda muayyan voqealarni tasvir vositalari yordamida hikoya qilinadi. Unda hayot, voqelik keng ko‘lamda olinadi, bir yoki ikki bosh qahramon ishtirok etadi, personajlar esa ko‘p bo‘ladi. Dostonlarda turli afsonalar, asotirlar hikoyalar, dev, parilar, xizr, ajdar, ajabtovor otlar, sehr-jodu ko‘p ishtirok etadi” (3, 94–95). Doston haqidagi ushbu ta’rifda aytilganidek, personajlarni ko‘p bo‘lishi, hayot voqealarini keng ko‘lamda olinishi kabi jihatlarning mavjudligi ham ushbu asarning, garchi qissa deb nomlangan bo‘lsa-da, aslida, doston ekanligini ko‘rsatadi. Jalon mumtoz adabiyotidagi dostonlar keng qamrovligi va hajmining kattaligi, ko‘tarib chiqqan ijtimoiy, siyosiy axloqiy muammolar, syujetning sertarmoqligi va dramatizmning o‘tkirligi, personajlarning ko‘pligi bilan ajraladi. Ayni shu jihatlar ushbu asarga ham xos. Balki, shu sababdan ham asarga “Iskandar podsho qissasi” deb nom berilsa-da, asar ichidagi boblar doston deb nomlangan. Shu o‘rinda qissa haqida ham to‘xtalib o‘tsak: “Qissa — badiiy adabiyotda epik janr turlaridan biri. G‘arbiy Yevropa va Amerika adabiyotida povest ma’nosidagi qissa tushunchasi yo‘q. Nasrning romandan boshqa barcha janrlari “novella” termini orqali ifodalanadi. Rus va sharq adabiyotida qissaning hozirgi va qadimgi ma’nolari o‘rtasida farq bor. Masalan, rus adabiyotida har qanday nasriy asar povest (qissa) deb atalgan. Sharq adabiyoti tarixida rivoyat usulida nasr yoki nazmda yozilgan tarixiy-afsonaviy asarlar qissa deb yuritilgan” (3, 380–381). Demak, qissa, odatda, bir va bir necha shaxslar taqdiriga oid turli voqealarni o‘zida asos qilib olishi bilan epik turning hikoya va mazmunining nisbatan cheklanganligi bilan romandan farq qiladi. Qissalar hayot murakkabliklarini hikoyaga nisbatan kengroq, xarakter hamda voqelik ko‘lamin romanga qaraganda kamroq qamrab oladi, degan qoidani emas, balki qadimda bajargan vazifasini tushunishimiz kerak.

Bizga yaxshi ma’lumki, Iskandar haqidagi barcha adabiy asarlarda, Iskandaradolatli shoh, dono hukmdor sifatida ta’riflangan. Ushbu asarda ham Iskandarning asosan ijobjiy qiyofasini ko‘ramiz. Voqealar davomida uning fazilatlari ulug‘lanadi, donishmandligi ko‘rsatiladi. Aynan shu kabi fazilatlarning takror va takror hikoya qilinishi Iskandar haqidagi boshqa dostonlarni eslatsa-da, biroq bu asardagi Iskandarning badjahlligi, ayyorona xiyalalarga ko‘p izn berishi, rahm-shafqat borasidagi amallari ham boshqa Iskandarlardan farq qilishini ko‘rsatadi.

Asarning syujeti sertarmoq va u sodir bo‘lgan voqeа bayoni tugamay, boshqa voqeа boshlaning boshlab yuborilishi va boshlangan ikkinchi voqeа bayonining o‘zi bir qancha alohida-alohida voqealardan iborat ekanligi e’tiborni tortadi. Asar Iskandarning davlat tepasiga kelishi va bunga yon atrofdagi shohlarning munosabatiga bag‘ishlangan voqealar tasviri bilan boshlanadi. Iskandar hukmdor bo‘lishi bilan uning nomi yon atrofga yoyila boshlaydi. Iskandarning taxt tepasiga kelganidan norozi hukmdorlar, Iskandarning ustiga qo‘shin tortib keladilar. Bularidan biri — Marun ismli hukmdor bo‘lib Iskandar ustiga qo‘shini bilan bostirib boradi, ammo yengilib, vazirlari bilan maslahat qiladi. Shunda vazirlaridan biri unga yo‘l ko‘rsatadi. Asarda bu voqeа shunday keltiriladi: “*Sayxun tog‘i kanorasida Aflatun nomlig‘ hakim bordir, haddan ziyod donishmand kimsadir, ushbu tariqa voqealarni maslahat birlan hal qilur dedi. Aning so‘zi Marunga ma‘qul bo‘lib, andog‘ bo‘lsa boringlar deb, haddan ziyod tuhfalar bilan vazirlarini aning xuzuriga yubordi. Vaqtiki, ular borib, Aflatunga salom berib, voqeani ayttilar. Aflatun aytdiki, nomi nadur? Vazir aytdi. Iskandar deb atar emishlar. Hakim so‘rdi. Qayondan hujum qildi? Vazir aytdi. Rumdan. Hakim so‘rdi. Otasining tayini bormishmi? Vazir aytdi. Bilmasmiz. Hakim aytdi andog‘ bo‘lsa, o‘sha odam podsho bo‘larkan, podsholarni o‘zi itoat qilguvchi va ko‘p yil umr ko‘rguvchi, hamma yer yuzini egallab olguvchi va anga dushmanlik andishasi bo‘lgan bilan maqobil bo‘lsa ani yiqitguvchi bo‘lur, alhosil podshohingizga aytinlarkim, qancha g‘ayrati bo‘lsa, anga itoat qilib, ne tilasa qabul qilsin. Mundin o‘zga chora yo‘qdur dedi*” (1, 27). Asarda biri ikkinchisini ergashtirib keluvchi voqealar oqimi shu tariqa boshlanib, obrazlarning ortishi, syujetning kengayib borishi kuzatiladi. Asar tarixiy, to‘qima va mifologik obrazlar bilan boyitilgan. Ana shunday tarixiy obrazlardan biri, bu — Aflatun. Barchamizga yaxshi ma’lumki, Aflatun Yunon donishmandlaridan biri va u asarlarda donishmand, faylasuf, bashoratgo‘y sifatida keltiriladi. Aflatun asarning boshida va oxirida kelgan. Yaa’ni asarning 90-dostonida yunon hukmdori sifatida talqin etilgan.

Asarda hech bir voqeа to‘satdan sodir bo‘lmaydi. U yoki avvaldan qahramonni tushiga kiradi, yoki o‘quvchiga kutilmaganda sodir bo‘lgandek tuyulsa-da, asar qahramon jonini xatarga qo‘yib borib uchrashgan obraz, uni uzoq yillardan buyon kutayotgan bo‘ladi, yoki yuqoridaqidek, kim tomonidandir avvaldan bashorat qilinadi. Aynan shu jihatи bilan u dostonlarga o‘xshaydi. Bunga jahon adabiyotida ham o‘zbek adabiyotida ham bir qancha misollar bor.

Asarda badiiy san’atlarga keng o‘rin berilgan. Qahramonlarni tasvirlashda o‘xshatish, malikalar tasvirida husni ta‘lil, jang sahnalarini tasvirida mubolag‘a san’atidan unumli foydalanilgan. “Mubolag‘a san’ati, mubolag‘a tablig‘, ig‘roq, g‘uluv deb atalgan uch turga bo‘linadi. Tablig‘ — aql ishonishi mumkin bo‘lgan, hayotda ham yuz berishi mumkin bo‘lgan mubolag‘adir. Mubolag‘анинг ikkinchi darajasi ig‘roq deb ataladi. Ig‘roq belgi yoki harakatni aqlan ishonish mumkin bo‘lsa ham, hayotda yuz berishi mumkin bo‘lmagan tarzda kuchaytirib tasvirlash, demakdir.

Mubolag‘ani uchinchi darajasi g‘uluvv deb ataladi. Aql ham bovar qilmaydigan, hayotda ham yuz berishi mumkin bo‘lmaydigan tarzda tasvitlashdir” (2, 9).

Asarning katta qismini jang sahnalari tashkil etadi. Aynan shu jang sahnalarida, mubolag‘aning bir necha turidan foydalanilgan. - Misol: “*Tahmospning pahlavonlaridan biri chiqib, Malik Iskandarga qarab, — Ey Iskandar, qani mard bo‘lsang chiq buyoqqa yoki mening haybatimdan qo‘rqib, qochib ketdingmi, deb nara tortgan erdi, bu so‘zdan Malik Iskandar g‘azabga kelib, otlariga muqobil bo‘lib, qo‘llariga shamshirlarini olib, raqiblarini bir urgan erdilar, Tahmospning bahodiri oti birlan ikki palla bo‘ldi. Buni ko‘rib Tahmosp maydon ichra qadam qo‘ydi. Malik Iskandar dillarida aytdilarkim, Tahmosp ushbu husni jonon birlan nobud bo‘lar deb. Tahmospg‘a ayttilarkim, ey Tahmosp, sening mardliging uchun kelgan lashkarlaringni asir olib, qul qilurman. Endi mani malak qil, yo‘qsa, sani tojingni taroj qilib, boshingni olurman dedilar. Unga javoban Tahmosp ayttikim, mening mardligim uchun kelgan lashkarlarni nobud qilar bo‘lsang, man sani alar uchun joningni olurman. Mening bir jonom bor, agar ming jonom bo‘lsa ham, dinim uchun berurman dedi. Alqissa, ikki tomon ham nayzalar birlan jang qildi. Nayzalar sinib boshqasiga almashtirdilarkim, ul ham sing‘ach, ikkisi ham shamshirlarini oldilar. Malik Iskandar zarb bilan shamshirni Tahmospni boshiga chunon urdilarkim, agar bu zarb toshga tushkanida tosh ikki palla bo‘lurdi. Tahmosp behush bo‘lgandek karaxt bo‘lib, maydondan qocha boshladi...*” (1, 207). Parchada Iskandarning bir zarbi ikki o‘rinda keltirilgan bo‘lib, birinchi zarbida raqibi oti birlan ikki palla bo‘lgani haqida so‘z boradi. Bunda mubolag‘a g‘uluvvdan foydalanilgan, ya’ni aql bovar qilmaydigan, hayotda ham sodir bo‘lishi mumkin bo‘lmagan vaziyat, voqeanning tasviri bo‘rttirib berilgan. Ikkinchisi ham birinchisiga o‘xshab ketadi, ammo unda raqib ikki palla qilinmadi, balki zarbaning kuchi kuchli mubolag‘a yordamida ifodalanadi, ya’ni: “*Agar shu zarba toshga tushganda, toshni ikki palla qilar*” (1, 208). Birinchi zarba raqibni o‘ziga qo‘shib ostidagi otini ham ikki palla qilgan edi, ikkinchi zarba esa raqibni karaxt qildi, xolos. Bu mubolag‘a tablig‘, aql ishonishi mumkin, hayotda ham sodir bo‘lishi mumkin holatdir.

Badiiy asarda g‘oyasini ifodalashda qahramonning psixologiyasi, taqdiri, voqealar va narsalarning mohiyatiga singib ketadi. Shunchalik singib ketadiki, biz u g‘oya muallif tomonidan ishora qilinmagan holda ham o‘zimiz o‘sha muallif chiqargan xulosaga kelamiz. Badiiy asar g‘oyasi oddiy adabiyot (masalan: siyosiy adabiyotda) mavjud g‘oyadan prinsipial farq qiladi. Badiiy asarda g‘oya — san’at asarining mazmuniga asos bo‘lgan umumlashtiruvchi, emotsiional obrazli fikrdir. Oddiy g‘oyadan farqli o‘laroq, badiiy asar g‘oyasi “badiiy g‘oya” deb ataladi . Badiiy asarning shakli va mazmuni uning mavzu va g‘oyasiga muayyan darajada bog‘liq bo‘ladi. Ikkisining uyg‘unligi, badiiy asar qiyofasini, ta’sirchanligini belgilashda uning shakli va mazmuni singari muhim ahamiyat kasb etadi. G‘oya, badiiy g‘oya — adabiyot va san’at asarlari zamirida yotgan emotsiional obrazli fikr. Hayotda ro‘y bergen

yoki ro'y berishi ehtimoli kutilgan har bir voqea va hodisa adabiyot va san'at asarlarida o'z ifodasini topishi mumkin. Yozuvchi yoki san'atkor tomonidan tasvir etilgan shunday voqea va hodisa badiiy g'oyaning predmeti hisoblanadi. Badiiy g'oyaning emotsiyal ta'sir kuchi, voqea va hodisaning muhimligi hamda uni tasvirlagan yozuvchining mahorati bilan belgilanadi. Badiiy g'oya tasvir etilgan voqea va hodisadan hosil bo'luvchi tasavvur, ma'no va mazmuniga emas, balki hayotiy voqea va hodisani muayyan nuqtai nazaridan idrok va talqin etish natijasida yuzaga kelgan emotsiyal obrazli fikrdir (4, 175–176).

“Iskandar podsho qissasi” asarining g'oyasi haqida gapirar ekanmiz, asar Iskandarning bir qancha janglari asosiga qurilgani, janglardan maqsad — islom dinini targ'ib etish ekanligi bilan ahamiyatlidir. Iskandar mag'lub qilgan raqiblarini o'ldirmas, aksincha ularning barchasini, imon keltirib musulmon bo'lishga chaqirardi.

Badiiy adabiyotda insonning alohida shaxsi qiyofasida yaratilgan, ayni paytda, badiiy umumlashma xususiyatiga va hissiy tasir kuchiga ega bo'lgan surati badiiy obraz deyiladi. Obraz (timsol) tushunchasining keng va tor ma'nolari mavjud. Keng ma'nodagi timsol tushunchasi ijodkorning fikr-tuyg'ulari singdirilgan hayot manzarasini anglatsa, tor ma'noda badiiy asarda aks etirilgan, inson siyemosini ifodalaydi (2, 67–68).

Har bir asarning mazmun va g'oyasini ochib berishda yozuvchi asar uchun tanlagen obrazlardan foydalanadi. O'z navbatida, har bir obraz asarda muayyan vazifani bajaradi. Ma'lum bir maqsad, g'oya yo'lida obrazlarning zanjir kabi birikuvi va shu maqsad ro'yobi uchun kerak bo'lsa, qurban bo'lishlari ko'plab asarlarda uchraydigan hodisa, ushbu asarda ham zanjir obrazlar o'z ifodasini topgan.

Iskandar podsho qissasidagi badiiy obrazlarni xarakterini ochib berish maqsadida ularni guruhlarga ajratib o'rganishni lozim topdik. Zeroki, asar haqidagi batafsil ma'lumotni, asar obrazlari talqinidan bilish mumkin.

Zanjir obrazlar: biz yuqorida obrazlarga qisqacha ta'rif berganimizda obrazlarga ma'lum vazifalar yuklanadi va mazkur obrazlar asar davomida ushbu vazifalarni bajaradilar dedik. Iskandar podsho qissasida Iskandarning 4 ta sadoqatli bahodiri bo'lib, ular — Gershast, Zimom, Barzin va Tavkar ismli yigitlardir. Ularning barchasiga yozuvchi tomonidan bir xil vazifa yuklangan va u vazifa Iskandar g'alabasini ta'minlashdir. Ushbu bahodirlar qaysi holatda, qay vaziyatda bo'lsalar ham Iskandar uchun har qanday xizmatni ado etadilar. Bu to'rt bahodirning o'zlarini o'zgacha usullari va mahoratlari bor edi. Shulardan biri bu Zimom, bo'lib uni ayyor degan laqabi bor edi. Iskandar raqiblari orasida qanday mashhur bo'la, Zimom ham shu qadar nomdor edi. Uning ayyorligi keng yoyilgan bo'lib, dushman taraf uning hiylasidan cho'chishardi, negaki, u har safar o'z ishini mahorat bilan ado etardiki hatto, raqiblari ham uning qilmishiga qoyil qolishardi.

*Xizr a.s. obrazi.* Ushbu obraz uchraydigan asarlar adabiy merosimizning katta qismini tashkil etadi. Xizr a.s. obrazi asarlarda homiy yoki yo'lboshchi vazifasini bajargan. Ora yo'lda qolgan,

kalavaning uchini topa olmagan qahramonga yo‘l ko‘rsatadi, kerak bo‘lsa homiylik qiladi. O‘rganganimiz, “Iskandar podsho” qissasida ham asar qahramoni Iskandar juda ham ko‘p jang olib borgan, olib borgan janglaridan ko‘zlagan asosiy maqsadi, butun insoniyatni musulmon diniga kirgizish edi. U nafaqat jang-u jadallar olib bordi, balki insoniyat uchun sirli bo‘lgan turli-tuman tilsimlarning sirlarini kashf etib, ularning foydalilardan foydalanar, zararlilarini yo‘q qilardi. Aynan, ana shunday paytlari Iskandar ikkilanib, chorasz qolganida, vaziyatdan chiqish imkonini topolmaganida uning tushiga Xizr a.s. kirar yoki o‘ngida — ro‘parasida paydo bo‘lib, unga eng to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatib, imkonsizdek tuyilgan barcha ishlarga imkon borligini ayon qilar edilar. Misol: “*Malik Iskandar Halun shohning xotinini devlar olib qochgan sandig‘ini olib kelish uchun bir choh ichiga tushtilar, u yerda bir daryo paydo bo‘ldi, ul daryog‘a borib g‘usl qilib, ikki rakat namoz o‘qib Ollohga munojot qilib erdilar, shol asnoda hazrat Xizr paydo bo‘lib, daryodan Malik Iskandarni andoq olib o‘tdilarkim, oyoqlari suvga tegsa ham ho‘l bo‘lmadi*”. Bu Iskandarning yolg‘izligida — o‘ngida Xizr a.s paydo bo‘lib yordam bergani haqida. Endi Xizr a.s. Iskandarning tushida unga yo‘l ko‘rsatgani — maslahat bergeniga e’tibor qaratamiz. Misol: “*Jang maydonidan raqibi qochib, uni qaerdan izlashga boshlari qotgan Malik Iskandar orom olmoq maqsadida uyquga ketdilar. Tush ko‘rdilar, tushlarida hazrat Xizr a. s. kirib, aytilarkim borib viloyat qamramani olinglar, andin so‘ng ul yerda turib qolmasdan Kobulga borursizlarkim, ul yerda bir tilsim bordirkim, hazrat Salmondin sizlarga yodgorilkdur. Ani olursizlar, dedilar. Shul asnoda Malik Iskandar uyqudan bedor bo‘lib, ikki rakat namoz o‘qib, tong otgandan so‘ng lashkarlarini jamladilar*” (1, 121). Asarda Iskandardan keyin ko‘p keladigan nomlardan biri, bu — Xizr a.s.dir. U qahramonlarning, asosan, Iskandar bilan bog‘liq voqealar yechimida keng qo‘llanilgan. Asarda Xizr a.s. timsoli, asosan, tush motivi bilan uzbek bog‘lanib ketadi. Asardagi voqealar davomida Iskandarning bir tush ko‘rishi va bu tushni faqat Dolyor payg‘ambar ta‘bir qila olishi haqida so‘z ketadi... Xizr a.s nafaqat Iskandarning tushida, balki asardagi boshqa qahramonlarning ham tushida, ba’zan o‘ngida ham namoyon bo‘lib, ularga zarur paytda yordam ko‘rsatadi. “*Iskandarning bir vaziri bor edi, uning yakka-yu yagona Gulondom degan qizi bo‘lardi. U qizni Iskandarning raqibi Tahmosp olib qochib ketadi. O‘z birodarlarini jodular qo‘lidan xalos qilishiga otlangan Gershast u qizni Tahmosp olib qochmasdan avval bog‘ ichidagi sokin bir yerda uchratadi. Shunda, Gulondom Gershastga men seni xotining bo‘laman, Xizr a.s meni tushimda senga nikohlab qo‘ydilar, deydi. Gershast uning so‘zlariga ishonadi, ammo u bilan qola olmasligini, birodarlariga yordam berishi kerakligini aytib, u yerdan ketadi*” (1). Asarda bu kabi misollar va boshqa payg‘ambarlar bilan bog‘liq vaziyatlar ko‘p keltirilgan va ular qahramonlarga mushkul vaziyatlarda eng maqbul yo‘lni ko‘rsatib, o‘z vazifalarini bajaradilar.

*Ayollar obrazzi.* Badiiy asarlarda ayol obrazining kelishi birinchidan, qahramonlarning ijobiy xarakterini ochib berib, ularni o‘quvchi ko‘ngilda bir pog‘ona yuksaltirishga sabab

bo‘lsa, ikkinchidan, ularning makri bilan voqealar keskin tus oladi va o‘quvchini o‘ziga yana-da jalb qiladi. Bir so‘z bilan aytganda, asardagi ayol obrazi uning qiziqarli chiqishini ta’minlaydigan omillardan. Mazkur asarda ham ayollar obrazi anchayin bisyor va ularni ikkiga ajratish mumkin. Birinchisi — mard bahodirlarning sadoqatli xotinlari, dono vazirlarning go‘zal qizlari va itoatgo‘y malikalar bo‘lsa, ikkinchisi — dev va jodularga xizmat qiladigan makkor jodugarlar, g‘arazgo‘y malikalar va sehrgar parilardir.

Aristotel “Poetika” asarida xarakterlar haqida gapirib, undan to‘rt maqsad ko‘zda tutiladi, deydi va uning ikkinchisida ushbularni yozadi: “Xarakterlar o‘ziga xos bo‘lishi kerak: xarakter mardonan bo‘lishi mumkin, ammo ayol kishiga mardlik bilan kuchlilik yarashmaydi” (5, 40). Shu kabi qoidalardan kelib chiqib aytish mumkinki, ushbu asarda, go‘zal va dilbar malikalar, ular odamxo‘rlarga podsholik qilsalar ham, adolat va haqiqat yo‘lidagi jahongirlarga itoat qilib, ularning ra‘ylariga qarshi chaqmaydigan, benuqson qilib tasvirlangandir. Itoatgo‘y malikalar mislsiz go‘zal, ularning bu itoatgo‘yligi go‘zalligini yana-da ortishadi, jodugar malikalar esa aksincha qaysar, qaysarligidan yanada xunuklashib ketadi. Bu dostonlarda ko‘p uchraydigan adabiy hodisalardan.

Asarda mifologik obrazlarga keng o‘rin berilgan. Ushbu asarda ikki xil — yovuzlik va ezgulikka xizmat qiluvchi mifologik obrazlardan keng foydalanilgan. Yovuzlik va nodonlikni o‘zida mujassmlashtirgan mifologik qahramonlar, asosan, Iskandarning raqiblariga yordamga kelib va unga va lashkariga qarshi jang qiladi. Ezgulik miflarining qahramonlari faqatgina Iskandar qo‘lga kiritishi, va sirlaridan ogoh bo‘lishi, o‘rini kelib qolsa ulardan foydalanishi mumkin bo‘lgan turli-tuman tilsimlarni qo‘riqlash va shu tilsimlarning Iskandarga yetib kelishi uchun kurashadigan timsollardir. Masalan, devlar shular jumlasidan bo‘lib, ular ming yillar davomida o‘sha tilsimlarni qo‘riqlar va omonatni egasiga topshiribgina jon taslim qilardilar.

Asar voqealari sodda tilda bayon qilingan, voqealar davomida sharq qissachiligidagi qo‘llaniladigan ifodalarga tez-tez duch kelamiz. Asardagi har bir dostonning boshlanishida “Roviylar demishlarki” jumlesi yoki sodir bo‘layotgan voqealari yechimiga kelganda “alqissa” so‘zining ko‘p qo‘llanilgani seziladi. Shuningdek, Iskandar mushkul ahvolga tushib qolganda, darhol o‘zining xilvat xonasiga kirib tahorat olib, ikki rakat namoz o‘qish lavhasi bilan bog‘liq tasvirlar ham ko‘p keladi. Asarda bu kabi so‘z va holatlarning takrori, asarning janr tabiatini bilan bog‘liqdir.

Asar “Emish-ki, Iskandar mening vafotimdan keyin, tobutdan qo‘llarimni chiqarib qo‘yinglar, toki el-ulus ko‘rsin, butun dunyonni egallab, u dunyoga ikki qo‘lim bo‘sh ketyapman” (1) degan so‘zlar bilan yakundlangan. Ushbu an‘anaviy xotima mazkur asarda ham Iskandar haqidagi voqealar xronologik tartibda berilganiga ishora qiladi.

**Xulosa.** Aytish mumkinki, asar haqidagi umumiylasavvurni undagi muhim obrazlar va ularning faoliyati beradi. Chunki yozuvchi asarda aytmoqchi bo‘lgan barcha fikrlarni asosiy va yordamchi

obrazlarga yuklaydi. Shuningdek, asar g'oyasi va uni amalga oshishi uchun ham, obrazlar zarur, zero barcha ishlarni aynan obrazlar amalga oshiradi. Asradgi obrazlarni to'g'ri talqin qilish asarni to'g'ri tushunish, demakdir. Biz ham asardagi obrazlarni o'rganish, ularga xos muhim xususiyatlarni ochib berish orqali asar mazmunini talqin qilishga urindik. Zero, mazkur asarda ham boshqa dostonlardagi kabi obrazlar bor-ki, ular asar voqealarini keskin o'zgarishiga yoki kutilmagan vaziyatlarni yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

"Iskndar podsho" qissasi hali adabiyotshunosligimizda o'rganilmagan asarlardan. Uni tadqiq etish "Xamsa" dostonkari tarkibiga kirgan Iskandar mavzusidagi dostonlarning badiiy retsepsiyasini o'rganishga imkon beradi.

### Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Арасту. Поэтика. — Тошкент: Янги аср авлоди, 2011. — 47 б.
2. Куронов Д. Адабиётшуносликка кириш. — Тошкент: Академнашр, 2009. — 242 б.
3. Искандар подшо қиссаси (Тошбосма). — Тошкент, 1913. — 516 б.
4. Жўракулов У., Ҳамроев К. Қиёсий адабиётшунослик. — Тошкент: ИМПРЕСС МЕДИА, 2021. — 188 б.
5. Хожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳатлари. — Тошкент: Шарқ, 1999. — 236 б.

### References

1. Arastu. *Poetika* (Poetics), Tashkent: Yangi asr avlodi, 2011, 47 p.
2. Kuronov D. *Adabietshunoslikka kirish* (Introduction to literary studies), Tashkent: Akademnashr 2009, 242 p.
3. *Iskandar podsho kissasi* (Toshbosma) (The story of King Alexander (Lithograph)), Tashkent, 1913, 516 p.
4. Zhurakulov U, Hamroev K. *Kiesii adabietshunoslik* (Comparative literary studies), Tashkent: IMPRESS MEDIA, 2021, 188 b.
5. Khozhiahmedov A. *Mumtoz badiiyat malohatlari* (Classic artistic merits), Tashkent: Shark, 1999, 236 p.